

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Pedagogika» kafedrası

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Ro'ziyeva Dilorom

«Pedagogik konfliktologiya»

REFERAT

MAVZU: Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Samarqand - 2014

Reja

KIRISH

ASOSIY QISM

- 1. Didaktik hamkorlikning psixologik xususiyatlari**
- 2. Pedagogga xos bo'lgan psixologik sifatlar.**
- 3. Didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, eng avvalo aholi turmush tarzi darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali hal qilish yuksak ma'naviyatli, bilimli, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati mamlakatimiz kuch-qudratining muhim omili ekanligiga to'xtalib, Prezident I.A.Karimov Xalqaro Vestminster universitetining ochilish tantanasida so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Darhaqiqat, bizning bunday omilni hisobga olmaslikka haqqimiz yo'q. Chunki, o'z oldimizga qo'ygan yuksak vazifa va marralarga erishishda zamonaviy bilim va tajriba sohibi bo'lgan yangicha fikrlaydigan yoshlarimiz bizning tayanchimiz va suyanchimizdir, desak ayni haqiqat bo'ladi.

Oldimizda turgan buyuk vazifalarni yechishning asosiy omili, ularni hal qilishning yagona sharti tom ma'noda barkamol shaxsni, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Yurtimizning yorug' kelajagi, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmasdan farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan bu vazifalarni ado etish barchamizning insoniy burchimizdir... bugun Vatanimizga nafaqat yuqori malakali mutaxassislar, balki umumbashariy meros va qadriyatlarni zamonaviy bilim va tafakkur bilan boyitishga qodir huquqiy demokratik jamiyatda odamlarning ozod va erkin yashashini, mustaqil fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilishini hayotiy zarurat deb biladigan barkamol yoshlar kerak».

Yuqorida ta'kidlangan ushbu masalalarning ijobiy yechimi bevosita o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga, jumladan, didaktik hamkorlikning psixologik asoslari, o'qituvchining kasbiy va psixologik sifatleri hamda didaktik hamkorlikning shakl va metodlariga bog'liqdir.

Didaktik hamkorlik sohasida yuzaga kelishi tabiiy hisoblangan turli xil tabiatga ega ziddiyatlar va ularni bartaraf etish pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biridir.

Pedagogik kasbni tanlash motivi bolalar bilan ishlashga qiziqish, o'qituvchilariga taqlid qilish, tashkilotchilik qobiliyati bo'lishni o'z ichiga oladi. Pedagogik kasbni tanlash motivi pedagogik qobiliyat jarayonida, pedagogika kolleji, pedagogika institutlari va universitetlarda o'qish davomida hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi va murabbiylarning roli nihoyatda katta.

Buyuk rus pedagogi K.D. Ushinskiy pedagogik odob hakida shunday deb yozadi: « Maktabda hazilga yo'l ko'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, ammo xamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ichidan kir izlashga, yaxshilik muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi kerak. » (O klassnoy dissipline, II- tomax , I tom. 1953 g. 160 str.)

Pedagog o'quvchiga ta'sir ko'rsatuvchi eng samarali usullarni topa olishi, tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llashda pedagogik nuqtai –nazardan eng yaxshi choraga rioya qila bilishi, konkret pedagogik vazifani, o'quvchi shaxsining xususiyat va imkoniyatlarini va muayyan pedagogik vaziyatni hisobga olib ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu referatda pedagogning o'quvchiga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish, didaktik hamkorlikning psixologik xususiyatlari, pedagogga xos bo'lgan psixologik sifatlar hamda didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar mohiyatini tadqiq qilish **tadqiqot maqsadi** sifatida belgilangan.

Tadqiqot obyekti: O'quv-tarbiyaviy ishlardagi didaktik hamkorlik jarayoni

Tadqiqot predmeti: Didaktik hamkorlik sohasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar

Tadqiqot vazifalari:

1) Mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarini tahliliy o'rganish

2) Didaktik hamkorlikning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish

2. Pedagogga xos bo'lgan psixologik sifatlarni aniqlash

3. Didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar tabiatini tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi bo'yicha g'oyalari, ma'ruzalari, Qur'oni Karim va Hadislar, Sharq mutafakkirlarining asarlari, shuningdek Respublikamiz pedagog-psixolog olimlarining konfliktlarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik usullari muammolariga bag'ishlangan asarlari hisoblanadi.

ASOSIY QISM

1. Didaktik hamkorlikning psixologik xususiyatlari

O'qituvchi o'zining sog'lom dunyoqarashi, aniq yo'nalishi, g'oyaviy-siyosiy etiqodining yuksakligi bilan boshqalardan ajralib turmog'i lozim. O'quvchilarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yish, bolalar jamoasi bilan ishlash va birga bo'lishga moyilligi, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro tug'ri munosabatda bo'lish ham uning muhim xislatidir va ta'lim tarbiyaning muvaffakiyatli belgilaydigan muhim omil hamdir.

Yuqorida sanab o'tilgan bu sifatlarni har bir talaba o'zida kanday shakllanganligini his qilib ko'rmog'i muhimdir.

Yaxshi, oliyjanob pedagog bo'lishi uchun bu yetmaydi. Pedagog yuqoridagi ko'pgina sifatlar bilan birga o'zining professional faoliyati motivlarini anglaganligi muhimdir. O'qituvchining professional motivlari boshqa motivlar kabi murakkab tuzilishga egadir. Bunga avvalo, o'qituvchi kasbini tanlash motivi kiradi: 1) o'qituvchi mehnat jarayonida paydo bo'ladigan motivlar 2) pedagog faoliyatini takomillashtiradigan motivlar. Ushbu motivlar o'z burchini, ma'suliyatini, his qilishda vatanparvarlik va internasionalizm tuyg'ulari asosida bevosita shakllanadi.

Pedagogik kasbni tanlash motivi bolalar bilan ishlashga qiziqish, o'qituvchilariga taqlid qilish, tashkilotchilik qobiliyati bo'lishni o'z ichiga oladi. Pedagogik kasbni tanlash motivi pedagogik qobiliyat jarayonida, pedagogika kolleji, pedagogika institutlari va universitetlarda o'qish davomida hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi va murabbiylarning roli nihoyatda katta.

Bulgusi o'qituvchi nima uchun bu kasbni tanlashni bilmog'i, uni his qilmog'i, kerak(to'satdan pedinstitutga kirish va turli sabablar...) chunki

pedagogik kasbga bo'lgan yunalish, pedagogik qobiliyatni shakllanishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik qobiliyat - bu shaxsning aqliy, emosional-irodaviy xislatlarini ifodalash pedagogik faoliyatga qiziqish, intilish, izlanish xususiyatidir.

Psixologlardan F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, N.D Levitova I.V.Straxovlar pedagogik qobiliyatning ko'p qirrali ekanligini ko'rsatib berdilar.Ular o'qituvchi bo'lish uchun qandaydir bir yoki bir necha sifatlar yetarli emasligini va o'qituvchi quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishini, yoki pedagogik qobiliyat strukturasiga kiradigan qobiliyatlarni ko'rsatib berdilar. Bularga

1. Didaktik qobiliyat- o'qituvchining o'quvchilarga yangi bilimlarni, informasialarni tushunarli qilib bayon qilishi

2. Akademik qobiliyat - o'qituvchining o'zi o'qitadigan predmetiga oid va unga bevosita kerak bo'lgan fanlarni bilishga bulgan qobiliyati (M.Matematik –geometriya, algebra, astranomiya, fizika...)

3. Perseptiv qobiliyat - o'qituvchining o'quvchilarga xos xususiyatlarni, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini bilgan xolda ularning qalbiga, ichki dunyosiga kirish qobiliyati.

4. Nutq qobiliyati –o'qituvchining o'quv materialini aniq, ravon va tushunarli bayon qila bilish qobiliyati. Nutq yordamida va pantomimika vositasida o'z his-tuygularini tushuntira bilish qobiliyatidir.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – bu o'quvchilarning qizikishlari, ideallari, yunalishlari dunyoqarashlarini hisobga olib, ta'lim- tarbiya ishlarini tashkil qilish, o'quvchilarni jipslashtirish, jamoani uyushtira olish, o'z shaxsiy ishini tashkil qila olish qobiliyatidir.

6. Avtoritar qobiliyat - o'quvchilarga bevosita emosional-irodaviy ta'sir ko'rsatish, ular orasida, pedagogik jamoa o'rtasida obro' qozona olish qobiliyati bor. O'zining talabchanligi, samimiyligi, odilligi bilan jamoa orasida ajralib turish qobiliyatidir.

7. Kommunikativ qobiliyat - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan tug'ri munosabat o'rnatish, o'quvchilarga tug'ri yondashish yo'lini topa bilishi, o'zaro samimiy munosabatlar o'rnatish, ular bilan birga hamnafas bo'lish qobiliyatidir.

8. Pedagogik xayol - ham pedagogik qobiliyat tarkibiga kiradi. O'qituvchi o'zi ta'lim-tarbiya berayotgan o'quvchisini anday xarakterli xususiyatga egaligiga qarab, uni kelgusida kim va qanday inson bo'lishini bila oladigan, unda qanday fazilatlar shakllanishi mumkinligi oldindan aytib bera oladigan qobiliyatdir.

9. Diqqatni tashkil qila bilish qobiliyati - bu - (Kruteskiyning «Ped.psixologiyaning asoslari» kitobida Straxov I.V buni - diqqatni taqsimlash qobiliyati - deb ko'rsatadi) - o'qituvchini o'z va o'quvchilar diqqatini tashkil qila bilish, o'quvchilarning turli xildagi diqqat turlari holatlaridan foydalana olish, o'z diqqatini dars jarayonida taqsimlay olish va unda biror kerakli obyekt, o'quvchini diqqat e'tiboridan tushirib qoldirmaslik qobiliyatidir. O'qituvchi shu qobiliyatga ega bo'lgandagina, u ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli uyushtira oladi.

(Talabalarga savol: Sizda kanday pedagogik qobiliyatlar mavjud? Bu qobiliyatlarni qanday shakllantirish mumkin. Baxs.)

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish uchun: 1) talaba yoki o'qituvchi tinmay o'z ustida ishlashi, mashq qilishi, 2) izlanishi, 3) ta'limning samarali metodlaridan foydalanishi, 4) pedagogik faoliyatda xamma vaqt faol ishtirok etishi, 5) o'qituvchilarning darslariga kirib, tahlil qilib, undan o'ziga tegishli

xulosalar chiqarib olishi, 6) faoliyat jarayonida paydo buladigan qiyinchiliklarga bardosh berishi, tusiqlarni bartaraf qilishi, 7) o'z oldiga quygan oliy maqsadni qo'lga kiritishga doimo intilishi va yana, yana izlanishi, 8)bolani o'z bolasi jigargo'shasi kabi sevishi lozim, 9) kuzatuvchanlikni rivojlantirishi va x.k.

III. O'quv faoliyati samaradorligini ta'minlashda o'qituvchilar bilan o'quvchilar orasidagi psixologo-pedagogik masalalar muhimdir.

O'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi o'zaro munosabat avvalo, o'qituvchining yoshlik va individual munosabatlarini hisobga olgan holda bo'lishga asoslanishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi I-sinfga kelgan o'quvchilarni bog'cha davridagi xususiyatlarni bilishi, o'quvchiga sezdirmagan xolda undagi salbiy xususiyatlarni oldini olishi, samimiy munosabatlar asosida uning fikrlarini bilib olishi va unga ozor bermagan holda ta'sir ko'rsatish talab kilinadi. Bu o'rinda o'qituvchining pedagogik odobi katta ahamiyatga ega.

Pedagogik odob nima?

Pedagogik odob - bu o'zini pedagogik jamoa va o'quvchilar jamoasi orasida tuta bilishi, o'z ma'suliyatini his qilgan holda pedagogik faoliyatga munosabatda bo'lish, o'qituvchining o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan tug'ri va samimiy munosabatda bo'lishi, o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, ahloq koidalariga rioya qilgan holda ish ko'rishi, ularga g'amxo'r bo'lishdir.

Buyuk rus pedagogi K.D. Ushinskiy pedagogik odob hakida shunday deb yozadi: « Maktabda hazilga yo'l ko'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, ammo xamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ichidan kir izlashga, yaxshilik muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi kerak. » (O klassnoy dissipline, II- tomax , I tom. 1953 g. 160 str.)

Pedagog o'quvchiga ta'sir ko'rsatuvchi eng samarali usullarni topa olishi, tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llashda pedagogik nuqtai –nazardan eng yaxshi choraga rioya qila bilishi, konkret pedagogik vazifani, o'quvchi shaxsining xususiyat va imkoniyatlarini va muayyan pedagogik vaziyatni hisobga olib ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar bilan bo'lgan munosabatda va istalgan pedagogik ta'sirni qo'llashda me'yorni sezish, arzimagan ish uchun keskin, qo'pol va o'quvchini xafa kiladigan darajada tanbeh berish, o'quvchilarda norozilik, xafagarchilik paydo qilish ham hakikiy pedagogning ishi emas.

O'quvchilar bilan bo'lgan munosabatda o'qituvchini adolatliligi alohida o'rin egallaydi. Adolatli munosabat o'quvchilarni o'qituvchiga yaqinlashtiradi. Uning obro'sini oshiradi va bunday o'qituvchiga nisbatan o'quvchilarda hurmat hissi uygonadi. Adolatsizlik – ko'pincha(hamma vaqt) yomon oqibatlarga olib keladi va bunday sifat umuman o'qituvchiga yot bo'lishi kerak.

O'quvchilar o'qituvchini bo'shangligini, laqmaligini prinsipsizligini, irodasizligini yoqtirmaydilar. O'quvchilar qo'pollik bilan majbur qilmasdan, qurqmasdan, shuningdek keraksiz rasmiyatchiliksiz talab qila oladigan, shu yo'l bilan o'z maqsadiga erisha oladigan o'qituvchilarni juda hurmat qiladilar.

Demak, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro samimiy munosabat, bir-birini tushungan holda ish ko'rish, o'quvchining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib uni baholash, pedagogik bahoga nisbatan odillik, bola shaxsiyatini hakoratlamay ish ko'rish pedagogik odob va munosabatlarning asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'zaro munosabatlarni boshqarish uchun avvalo, mana shu munosabatning sababi va xarakterini bilishi shart. Shuning uchun xam hozirgi kunda rus psixologlari (Ya.L. Kolominskiy, V.M. Galuzinskiy va boshq.) o'qituvchi va o'quvchilar

orasidagi munosabatlarni xarakteri masalasini o'rganib, unda o'quvchi hakida xulosa chiqarishga shoshilmaslik, uni turli faoliyatlar prosessida kuzatish, dangasa, intizomsiz o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, ularni qiziqish va idellarini, psixologik yunalishini, dunyoqarash va e'tikodlarini bilib, unga ta'sir ko'rsatish va unda samimiylikka – bu orqali jiddiy va talabchanlikka e'tibor bergan holda muomala qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib berdilar.

O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan muomala uslubi shunday bo'lishi lozim. U kerak va kerak bo'lmagan ishga aralashmaslik, maktab hayotidagi ishlar, turli hil holatlarga nisbatan sabr, chidam bilan munosabatda bo'lishi, bolalarni ishlariga iloji boricha aralashmaslik, u yoki bu tadbirlarni tashkil qilishda tashabbus ko'rsatavermaslikdan iboratdir(tashabbus bolalardan chiqishi kerak). O'qituvchi maktab ma'muriyatining yuqoridan, maktab o'qituvchilarining «pastroq»dan bo'ladigan ko'rgazmalarga ko'r-ko'rona berilavermasligi lozim. Aks holda o'qituvchi yangilikka, mustaqillikka intila olmaydi.

Har qanday ish faoliyatida u o'zining pedagogik bilim va malakalaridan foydalanadigan va uni amalga, maktab hayotiga tatbiq qiladigan bo'lmog'i lozim.

O'qituvchi o'quvchilarga psixologo-pedagogik tavsifnoma tuzishda ham o'quvchilarni har tomonlama o'rganishi, oilaviy sharoiti bilan tanishishi, uning o'qishga va predmetlarni o'rganishga, o'zlashtirishga bo'lgan munosabatlarini; idrok, xotira va tafakkur xususiyatlarini, mehnatga bo'lgan (ongli, ijobiy yoki aksi) munosabatini bilishi; o'quvchining xarakter xislatlari, temperamenti va maxsus qobiliyati xususiyatlarini aniq bilgan holda yozishi lozim. Tavsifnoma obyektiv xarakterga ega bo'lishi va undan kelgusida boshqa o'qituvchilar foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini nazarda tutib yozilishi shart.

O'quvchi shaxsini baholash o'qituvchining odobi, pedagogik taktiga bog'liqdir. Pedagogik takt (lot. *tastus* – tegish, sezish, odob) atrofdagi kishilar bilan muomala va munosabatda bo'lishda me'yor hissiga rioya qilishdan iborat ahloq normasidir. Takt – shaxsning aqliy hamda ahloqiy kamolat darajasini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi. Demak, o'quvchi shaxsini baholashda o'qituvchi ahloq me'yoridan chetga chiqmasligi talab etiladi.

Maktabni isloh qilish sharoitida o'qituvchining o'z ustida ishlashi alohida ahamiyatga egadir. Psixologik nuqtai nazardan o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi, o'zining bilim va malakalarini kengaytirib borishi uning faoliyatini asosini tashkil qiladi. Chunki: 1) o'z ustida ishlash, yangiliklar izlash o'qituvchi oldiga kuygan vazifani haqqoniyligini ochib berish; 2) o'quvchiga yangi informatsiyalar berish bilan birga, unda shunga nisbatan qiziqishlar uyg'otish, avvallari olgan bilimlarga solishtirib ko'rish; 3) o'z kasbiga yo'nalishni shakllantirish imkonini beradi.

O'z ustida ishlash orqali o'qituvchi uni pedagogik faoliyatga tatbiq qiladi. O'z ustida ishlash o'qituvchi shaxsining kasbga yo'naltirilgan faoliyatini mazmun va sifat jihatidan qayta ko'rishga, umumiy-siyosiy bilimlarini takomillashtirishga, fan sohasidagi yangiliklarni bilish va uni hayotga tatbiq etishga, madaniy hayotimizdagi yangiliklar bilan tanishishga olib keladi.

O'qituvchining o'z ustida ishlashi, izlanishining konkret mazmuni va shakli bir qancha narsalarga bog'liq: yoshga, pedagogik tajribaga, yashash sharoitiga, o'qitayotgan premetiga, qiziqishlariga, o'quvchilarning bilim va tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir.

Shuni aytish kerakki, «*intilganga tole yor*» deyishganidek, o'qituvchi izlansa, o'z ustida ishlasa u doimo oliyjanob o'qituvchi bo'lishi mumkin.

2. Pedagogga xos bo'lgan psixologik sifatlar.

Pedagogik faoliyat: 1-dan, pedagogik yunalishning aktivligini; 2-dan, ijtimoiy buyurtmalarni qanday bajarilishini, 3-dan, shaxsni o'z ichiga oladi. Pedagogik faoliyat boshqa faoliyatlar orasida eng murakkab va ta'lim-tarbiya berishdan oliy maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Shuning uchun bu faoliyatning turi, tuzilishi xam o'qituvchi shaxsi oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablarning qanchalik murakkabligini ko'rsatishi mumkin.

Pedagogik faoliyat turlariga:

1. Ta'limiy faoliyat.
2. Tarbiyaviy faoliyat.
3. Tashkilotchilik faoliyati.
4. Tashviqotchilik faoliyati.
5. O'z ustida ishlash faoliyati
6. Maslahat berish, bolalarga yo'l-yuriq ko'rsatish faoliyati.

Pedagogik faoliyat strukturasiga:

1. ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarining motivlarini aniqlash;
2. o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini tanlay olish;
3. o'quvchilarni nazorat qilish va ularning faoliyati, bilimlarini baholay olish kiradi.

Pedagogik faoliyatning bu strukturasida bevosita uning komponentlari:

- 1) konstruktiv,
- 2) tashkilotchilik,
- 3) kommunikativ faoliyatlar yotadi.

Chunki, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarining motivlarini belgilash, unga ta'sir etuvchi usullarni tanlab olish, qo'llash; o'quvchilarni nazorat qilish va bilimlarni baholash bevosita o'qituvchining konstruktiv, ya'ni ta'lim jarayonini tashkil etishga, uning tashkilotchiligi va ta'limni boshqarishi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati va ularning bilimlari, imkoniyatlarini baholay olishiga, o'quvchilar qalbiga kira olishiga bog'liqdir.

Konstruktiv komponent - o'qituvchining dars(mashg'ulot) va dars(mashhulot)dan tashqari bo'ladigan tarbiyaviy ishlarni ishlab chiqish, unga tegishli bo'lgan usullar yoki metodlarni tanlay bilishi, o'quvchilarga chuqur bilim bera olishi, darsni faollashtirishi va intensivlashtirish (tezlatish) yo'llarini, muammoli vaziyatlarni paydo qila olish va uni o'quvchilar oldiga qo'ya bilishdagi faoliyat komponentidir.

Pedagogik faoliyatning bu komponenti maktabni isloh qilish jarayonida jamiyatimiz hayoti, rivoji uchun zarur bulgan komil insonni tarbiyalashda o'qituvchilar oldiga ulkan talablarni qo'yadi.

Tashkilotchilik komponenti - bu komponent konstruktiv komponent bilan bog'liq bo'lib, u butun o'quv faoliyati va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish malakasidan iboratdir.

Tashkilotchilik faoliyatida uch yo'nalish:

1. Bayon etish,
2. O'z hulqini dars va tarbiyaviy ishlarda tashkil qila bilish, boshqarish.
3. O'quvchilar faoliyatini tashkil qilish asosida amalga oshadi.

O'quv va bilish faoliyatini tashkil qilishda o'quvchilarning individual ish faoliyatini tashkil qilish, jamoa faoliyatini, ota-onalar va maktabga yordam beradigan tashkilotlar ishini boshqarish ham shu faoliyatning ish mazmunini tashkil etadi.

Kommunikativ faoliyat - bu faoliyat o'qituvchining o'quvchilar, otalar va maktab ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi munosabat o'quv faoliyatining mazmunini qanday bo'lishini belgilaydi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchini asosan, bilim darajasiga qarab emas, balki uning saxiyligi, diqqat-e'tibori, emosional munosabatlariga qarab baholaydi.

O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan emosional munosabatlarini 5 tipga ajratish mumkin: 1) emosional-ijobiy faollik,

2) emosional-ijobiy passivlik,

3) emosional-salbiy faollik,

4) emosional-salbiy passivlik ,

5) muvozanatsizlik

Bunday munosabatning har biri bolaga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'zaro munosabatlarning mazmunini, sifati tashkil kiladi. O'quvchilar shu munosabatlarga turlicha berilishlarida ularni o'qishga, mehnatga bo'lgan turli munosabatlari shakllanadi

III. Har bir shaxsning o'ziga xos xususiyati mavjud. Xar bir shaxsning ijobiy va salbiy xususiyatlari ham mavjud. Ammo milliy maktab o'qituvchisi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari va sifatlari, qobiliyatlari, menimcha, ham boshqa kishilarnikidan farq qilmog'i, u iloji boricha bola uchun, o'quvchi (talaba) uchun ideal bo'lmog'i, unga taqlid qilishiga munosib bo'lmogi lozim. Chunki o'qituvchi qo'lida bo'lg'usi insonning takdiri yotadi (buni qaytarib takrorlayman). O'qituvchi shaxsining professional, ya'ni kasbga yunaluvchi sifatlari, avvalo, uning bilim va bilim berishga bo'lgan extiyoji, istedod va qobiliyati, ahloqiy sifatlari: haqqoniyligi prisipiialligi, talabchanligi, mexribonligi, o'z burchini his kilishidir. O'qituvchining professional ahamiyatga ega bulgan muhim sifatlari - bolani sevishi,

o'quvchining ichki dunyosini tushunishga kobilyatliligi, ularga maqsadga muvofiq pedagogik tasir ko'rsatishi, o'quvchining ayni paytdagi (hozirgi) psixologik holatini tushunib, yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishidir.

Rus yozuvchisi A. M. Gorkiy ajoyib sovet pedagogi. A.S. Makarenko haqida gapirib: «U, bolalarga bo'lgan chinakam mehr o'tida yonar edi» degan. Bolalarga nisbatan hushyorlik, mexribonlik, samimiylik, so'zsiz sevisht mashhur pedagog V. A. Suxomlinskiyning eng ajoyib xislatlari edi, uning o'zi ham, qalbining bolalarga bo'lgan mehri limmo-lim to'lganligi haqida yozib bunday degan edi: «Mamlakatimizdagi barcha bolalarni bag'rimga bosgim va erkalagim keladi» (Tarbiya haqida, degan kitobidan. 1963).

3.Didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar

Asabiylashtiruvchi voqeya – hodisalar kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda mohiyat jihatdan unchalik ko'p emas. O'qituvchi – o'quvchi munosabatida 3 guruh o'zaro munosabat yetakchi o'rin tutadi, qaysikim bu holda o'quvchilar ruhiy shikastlanishi mumkin. Ular darsda emas, balki o'qituvchining o'quvchi bilan qiladigan muomalasi, taktikasi, uslubi, o'quvchi qilmishidan g'azablanish kabilarda aks etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga intizomiy usullar eng kuchli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bunday usullarning qo'llanishiga doir o'ziga xos misollarni keltirish mumkin.

- Hamma o'quvchilar shovqin ko'tarmoqda, sinfdan esa faqat bir o'quvchi chiqarib yuborildi.
- O'quvchilarning ota – onasi bilan o'zlashtirish yuzasidan suhbat o'tkazish maqsadida o'qituvchi ularning bosh kiyimi yoki portfelini olib qo'yadi.
- Parta orqasida tik turishga arzimagan aybi uchun majbur qiladi.
- Sababini so'ramasdan qiz bolani kechikkani uchun qizartiradi, uyaltiradi. sinfda tartibni ikki o'quvchi buzsa, ularning faqat biri jazolanadi, o'qituvchiga yoqmagani uchun.
- Yangi kelgan o'quvchi ehtiyotsizlik qilib deraza oynasini sindiradi, buning uchun bir o'qituvchi unga intizomsizlik tamg'asini bosadi.
- Sinfda o'qituvchi sumkasidan pul yo'qoladi, yoppasiga tintuv o'tkaziladi, vaholanki pulni hech kim o'g'irlagan emas.
- Butun sinf bo'yicha she'r yodlanmagan, o'qituvchi barcha o'quvchilarni kiyinib, ota – onalarini chaqirish uchun yuboradi.
- Sinfda sho'xlik qilgan o'quvchilarning bahosini pasaytiradi.

- O'quvchilarni "tur – o'tir" qabilida darsdan axloqi uchun jazolaydi, biroq bu o'quvchilarni intizomli qilib qo'ymaydi.
- Shanbalik paytida o'quvchilar yaxshi ishlashdi. Lekin shishani sindirishdi. Yaxshi tomonlar hisobga olinmasdan butun sinf o'quvchilariga direktor va o'qituvchi hayfsan e'lon qiladi.
- O'qituvchi daftardan xato topgach, uni yirtib tashlaydi va nima uchun shunday qilganini sharhlaydi ham.
- O'qituvchi o'quvchini sinfdan haydab chiqarmoqchi bo'ladi, biroq u buni xohlamaydi, o'qituvchi g'azablanib, asabiy ravishda buni sharhlaydi.
- Ikki guruh o'quvchilarning nima uchun bahslashayotganligini surishtirib o'tirmay, har ikkalasini jazolaydi, vaholanki tomonlardan biri mutlaqo haq edi.
- O'g'il va qiz bolani boshqa – boshqa partaga o'tqazadi va buni bular yaxshi o'qishni o'rgansin, bir – biri bilan bunday yaqin o'tirgancha, deb izohlaydi.
- O'quvchini butun sinf oldida ikki soat davomida burchakda tik turishga majbur qiladi.
- Darg'azab o'qituvchi o'quvchi qo'lidan ruchkani olib, polga uloqtiradi.
- O'quvchi tirishqoq emasligini bahona qilib, u bilan ishlashdan bosh tortadi.
- O'quvchini nazorat ishidan sababsiz (yoningdagiga aytib turding deb) haydab yuboradi. O'quvchini haydar ekan, orqasidan portfelini otib yuboradi.

Amaliyotdan olinadigan har bir voqyeada konfliktda bo'lganlar hamda bunday konflikt guvohlari mavjud. O'ylash mumkinki, bolalar va ular ustozlari orasida yuz beruvchi to'qnashuvlar asabiylashuv natijasi bo'lib,

bular bir xil oqibatlar bilan tugamaydi. To'qnashuvchi tomonlar o'ta asabiylashadilar, ayniqsa maktab o'quvchilari ko'proq iztirob chekishadi. Guvohlarga kelganda esa ularning munosabatlari har xil bo'lishi mumkin.

Konfliktogen vaziyatlarning ikkinchi guruhini boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar qilmishi tashkil etadi, buni o'quvchilarga nisbatan "diskriminasiya" deb atash mumkin. Ularning shakli ko'p emas. Shuning uchun ham boshlovchi o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida o'ziga – o'zi man qilish kabi himoya to'sig'idan foydalanishi mumkin. Kuzatishlar natijasida o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni "ezish"ga asoslangan muloqot shakli yashovchandir. Buni bilish ayniqsa bolalar ruhiyatini jarohatlardan saqlamoqchi bo'lgan o'qituvchilar uchun juda muhimdir. Quyida amaliyotdan olingan ayrim misollarni keltiramiz:

- A'lochilarga topshiriq berishadi. Boshqalar esa ularning muvaffaqiyatli faoliyatini kuzatuvchilardir.
- Bolalarni qobiliyatli va qobiliyatsizlarga bo'lishadi. Bu haqda butun o'quvchilarga ochiq aytishadi. Qobiliyatsizlarga ikkinchi yilga qoldirish bilan tahdid qilishadi.
- O'quvchilarning bir qismini ismi bilan atashadi, boshqalarni esa familiyasi bilan, bu bilan o'zining mazkur bolalarni yoqtirmasliklarini ta'kidlamoqchi bo'lishadi.
- A'lochi va intizomli o'quvchilarni haddan tashqari maqtab yuborishadi.
- A'lochi bilan oddiy o'quvchi janjallashib qolgudek bo'lsa, a'lochini emas, oddiy o'quvchini jazolashadi.
- Darsdan tashqari paytlarda ko'proq a'lochi va yaxshi o'quvchilar bilan suhbatlashishadi.
- A'lochi o'quvchi bilan qoloq o'quvchini yonma – yon qo'yib, so'nggilarga tumanli kelajak bashorat qilishadi.

- A'lochi o'quvchi darsga yaxshi tayyorlanmaganda unga rahm – shafqat ko'rsatishadi, boshqalarni esa xuddi shunday qilmishi uchun jazolashadi.
- A'lochilarga rasmdan yaxshi o'zlashtirmagan paytda ham a'lo baho qo'yishadi.
- Ochiq bo'lmasa-da yaxshi o'qiydiganlarga mehribona munosabatda bo'lishadi, qolgan o'quvchilar esa pedagogik mehrdan mahrum bo'lishadi.
- O'qituvchilarning bolalarini alohida qo'llab – quvvatlashadi.
- Ko'rish qobiliyati kuchsiz bo'lgan o'quvchini oldingi partaga o'tqazishdi, bu o'quvchini sezilarli darajada tutaqtiradi. Ko'rinadiki, u bu o'quvchi bilan ishlamoqchi emas. O'qituvchining simpatiyasi va antisimpatiyasiga sazovor bo'lgan o'quvchilar bilan munosabatda o'rta yo'l topish juda qiyin. A.S.Makarenko o'quvchilarga nisbatan “barovar ovoz”da bo'lish taktikasiga qarshi chiqqan edi. Shu bilan birga o'quvchilar bilan munosabatda individual yondashishni ham rad etib bo'lmaydi. O'quvchilarning qobiliyati, mehnatsevarlik, xarakter, tashqi qiyofasi, odobi va madaniyatiga qarab har xil munosabatda bo'lish kasbiy pedagogik jihatdan tabiiy hisoblanadi.

Konfliktlarning uchinchi guruhiga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash natijasida paydo bo'ladigan nizolarni kiritish mumkin.

Talaba bu haqda maktab amaliyotiga tayyorlanayotgan paytdayoq o'ylab ko'rishi, bu haqda o'z taktikasini ishlab chiqishi lozim.

Darsda o'qituvchi tomonidan baho qo'yilganda qanday sabablar o'quvchilarning asabiylashuvi, noroziligiga sabab bo'ladi?

- Baholashda ikki izlamachilik sodir bo'lsa: daftarda baho “3”, jurnalda esa “4”.

- Og'zaki va yozma ishlar adolatsizlarcha baholanadi.
- Ota – onalar iltimosi, tanish – bilishchilik sababli baholar ko'tarilib qo'yiladi.
- Yangi kelgan o'quvchilarga o'zining talabchanligini namoyish etish maqsadida ataylab past baho qo'yiladi.
- Javoblarga talablar ham bir xil emas. Ko'pincha bu o'qituvchining kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.
- Oldin qo'yilgan "5" baho keyingi baho qo'yilishiga ta'sir etadi.
- Uy vazifasini bajarishdagi tirishqoqlik hisobga olinmaydi.
- Hali o'rgatilmagan narsani chiza olmaganligi uchun "2" qo'yiladi.
- Yozuvning iflosligi uchun yaxshi yozilgan nazorat ishining bahosini tushirishadi. O'quvchi hayron: nega to'g'ri bajargan ishiga past baho qo'yishdi?
- Bir xil xatolarga yo'l qo'yilgan diktantlarga turlicha baho qo'yishadi. O'quvchilar o'qituvchining o'z "erkatoy"lari bor degan xulosaga kelishadi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, o'quvchilar bilimini baholashda bir qancha tushunmovchiliklar ham mavjud. Ulardan biri – bu ayniqsa, gumanitar fanlardan baholashda qat'iy bir xato mezonlarining yo'qligidir. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, kayfiyati va hokazolarni kiritish mumkin. Nihoyat, baholashdan Tete a – tete qabilida yuz beruvchi konfliktlar chuqurligi jihatidan kuchli ziddiyat hisobalanadi. Bu o'rinda ham o'qituvchi tomonidan jo'rttaga sodir qilinadigan konfliktlar hamda birinchi qarashda tushunmovchilikka o'xshash ziddiyatlar mavjud. Misollarga murojaat qilaylik.

O'smir kechqurun elektr tarmog'ini o'chiradi va direktorga qasddan ikki – uch kun dars qoldiradi. O'quvchi kundalik daftaridagi o'qituvchi izohini o'zgartirdi va buning uchun ota – onasi va direktordan tanbeh eshitdi.

O'quvchilar bir – birlariga sinf lattasini otishdi va latta maktab zavuchining boshiga kelib tushdi. Chaqimchi qizni sinf rahbariga gap tashigani uchun do'pposlashdi. Xor bo'lib ashula aytishga hamkorlikda qarshi chiqishdi. Qishda o'quvchini sinfdan haydashdi, u daryoga cho'kish uchun jo'nadi, uni tirik qaytarib kelishdi. Bazmda xohishiga qaramay ashula aytishga majbur qilishdi. Ko'ylagining rangi kulrang bo'lganligi uchun ikki qo'yishdi: maktabda hamma o'g'il bolalar oq ko'ylak kiyishi lozim edi. O'qituvchi g'azabga minganda o'tgan sana bilan bolaga salbiy baho qo'yadi.

O'quvchilardan biri o'qituvchining o'rindig'iga knopkani yuqoriga qilib qo'ydi, o'qituvchi va o'quvchilarni qo'rqitish uchun ilonni olib kelishdi, o'qituvchining ko'ylagiga rang sachratishdi, derazani sindirishdi...

O'smirlarning bunday qilmishlariga turlicha munosabat bildirish mumkin. Tavsiflangan qilmishlarni kuchli ziddiyat tug'diruvchi faktorlar sirasiga kiritish qiyin. Biroq shunday bo'lsa ham talabaning bunday vaziyatlarda o'zini qanday tutishi maktab o'qituvchisi sifatida oldindan ssenariya tuzish orqali hal etilishi qiyin muammodir.

Nisbatan katta xafagarchilikka sabab bo'ladigan ziddiyatlardan tashqari o'qituvchi va o'quvchilar uchun kuchli ruhiy jarohat yetkazuvchi konfliktlar ham mavjuddir. Bularga didaktik xatolarga, muhimi, o'quvchilar bilim, ko'nikmalarini baholash metodikasida yo'l qo'yiladigan xatoliklarni kiritish mumkin.

Bunda faqatgina ayrim ijobiy natijalar kuzatiladi – o'quv ishida erishilgan muvaffaqiyatlar, umumiy tartib – intizomning barqarorlashuvi, salbiy odatlarning barham topishi kabilarni kuzatish mumkin. Konfliktlarning xilma – xil oqibatlari bolalarning maktabdagi va maktabdan tashqari faoliyatida yaqqol iz qoldiradi. Shunday faktlar aniqlandiki, ziddiyatlardan so'ng o'zlashtirish, xulq – atvor baholarining pasayishi, o'qituvchiga bo'lgan ishonchning pasayishi, uzoqqa cho'ziluvchan arazlashlar, o'qituvchi

qilmishining adolatsizligini tushunish, o'qituvchi obro'sining o'quvchi nazarida tushishi, xulq – atvorning ikkilangan uslubining vujudga kelishi, ya'ni xo'ja ko'rsinga, o'qituvchi tazyiqidan qutulish uchun harakat qilish va noqulay vaziyatlardan qutulishga harakat qilish kuzatiladi. O'quvchilar taqdirini hal qiluvchi konfliktlar orasida quyidagilar ajralib turadi: boshqa maktabga o'tkazish, maxsus maktab va axloq tuzatish bolalar muassasasiga yo'llanma berish. O'qituvchilar xulq – atvorida ham ziddiyatlar aks etadi. Bu hol o'qituvchining nazokatsizligi chegaradan chiqib ketgan paytda ota – onalarning bu haqda qo'rqmasdan maktab rahbariyatiga hamda o'qituvchining tikka yuziga aytishlarida namoyon bo'ladi. Konfliktli vaziyatlarning ikkilamchi zarari kuzatiladi: o'quvchilar va o'qituvchisining kayfiyati masalasida. Nihoyat munosabatlarning ikki tomonlama o'zgarish holati vujudga kelishi kuzatiladi: agar ziddiyatdan so'ng yo'l qo'yilgan xatolar tomonlardan biri tomonidan anglab yetilgan bo'lsa. Juda kam hollarda ziddiyatlar natijalari chuqurlashib ketishi, konflikt tug'diruvchi faktorlar yengib o'tilmasdan qolib ketishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ahloqiy pozisiyani shakllantirishda ularning axloqiy – pedagogik, tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'rinda qayd etish mumkinki, o'qituvchilarning ayrimlari o'z metodik zahiralarga ongli ravishda nazokatsizlik kabi salbiy odatni kiritib olganlar. Kichkintoylardan bunday salbiy munosabatga nisbatan o'rinli javob olmaganliklari uchun ham bunday o'qituvchilar ana shunday salbiy odatlarga ko'nikib qolishgan.

O'qituvchilarning ana shunday konflikt chaqiruvchi odatlari qatorida affekt oqibati hisoblanmish o'zini tuta olmaslik, portlashga, qiziqqonlikka moyillik, o'z-o'zini boshqarishning yetishmasligi o'rin oladi. Bunda ko'p narsa o'qituvchining kasbiy pedagogik madaniyatiga bog'liqdir. O'zining qaysi hollarda chegaradan chiqishi, qizishib ketishini ko'ra bilish va ruhiy

zo'riqlashlardan chiqib ketishning boshqariladigan ssenariysini ishlab chiqish muhimdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar ruhiy jarohat olgach, uning natijasida ahyon – ahyondagina ro'yobga chiqishi mumkin, bu hol ko'zga tashlanadigan qo'zg'alishlar shaklida kuzatilishi mumkin.

Qanaqa qadriyatlar o'qituvchi qiyofasida bolalar ruhiyatini jarohatlashning oldini oluvchi, konfliktlarni og'riqsiz bartaraf etish texnikasini shakllantiruvchi bilimlar mavjud ekanligini qayd etish joiz. Amaliy psixologiya o'qituvchining axloqiy madaniyatiga doir nazariy g'oyalar insonning inson tomonidan tushunish konsepsiyasiga asoslanadi. Bunda hammadan oldin insonlararo subyektiv yondashuvda o'zaro bir – birini tushunishga intilish muhim ahamiyatga ega. Subyekt – subyekt yondashuvda o'qituvchining vaziyatni to'g'ri anglash qobiliyati va bu holning o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga erishish lozim. Treningli ssenariylarda u yoki bu rollarni amaliy mashg'ulotlar paytida ijro etish orqali pedagogik etikaga amal qilishni muvaffaqiyatli shakllantirishga erishish mumkin.

Yuqorida biz pedagoglar nazokatsizligiga oid qo'rquv hosil qiluvchi faktorlarni kechirarli deb hisoblashimiz mumkin, chunki inson sifatida o'qituvchi ham o'zini yo'qotib qo'yishga haqli. Shu bilan birga o'qituvchi muomalasida yumshoqlik, bir holatdan ikkinchi ruhiy holatga o'ta bilish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar emotsional holatini boshqara bilish muhim ahamiyatga ega. Katta yoshdagilar bilan kichik yoshdagi o'quvchilar orasida yuz beruvchi “qonunbuzarlik” tufayli o'qituvchi va o'quvchi orasida yuz beruvchi konfliktlar ham mavjud.

Ta'kidlash joizki chegaradan chiquvchi axloqiy konfliktlar o'qituvchi bilan kichik o'quvchilar orasida yuz beruvchi ziddiyatlar orasida eng oxirgi o'rinni egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich maktab bu sohada

katta sinflarga qaraganda ancha kam zarar ko'radi. Shunga qaramasdan bu yoshdagi o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan ruhiy jarohat ancha zalvorlidir. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan sodir qilinadigan qonunbuzarliklar ikki xildir. Oldingi o'ringa hammaning oldida ochiqchasiga og'zaki haqorat qilish turadi. Bunga qarshi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida tegishli modda mavjud (140-modda), unga binoan ochiq og'zaki haqorat qilgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Kichkintoylarni haqorat qilish lug'ati o'smirlarga nisbatan unchalik rangba-rang emas. O'qituvchi tomonidan sodir qilinadigan haqoratlar kattalar ko'tara olmaydigan darajada xunuk: "axmoq", "to'nka", "bo'chka", "cho'chqa", "semiz qurt", "bir xalta go'sht", "tentak", "devona", "eshak", "po'stak", "do'ng peshona", "kallavaram" ... va hokazo.

Nihoyat, o'qituvchilar tomonidan sodir qilinadigan qonunbuzarlikka o'quvchi ota – onasidan sovg'a – salom undirish, bahoni oshirib qo'yish, ota – onasi savdo sohasida ishlovchi o'quvchilarni u yoki bu noyob tovarni topib kelishga majbur qilish va h.k.lar kiradi. O'qituvchilar tomonidan ruhiy zo'riqishga sabab bo'luvchi yana shunday misollar keltirish mumkinki, bunga tabiiy ehtiyoji tufayli sinfdan chiqishga ijozat so'ragan o'quvchiga qo'pollik bilan rad javobini berish. Parta joyini ho'llab qo'ygan o'quvchini ustidan kulish, jismoniy nuqsoni bor o'quvchini o'ynashga majbur qilish, maktabdan haydash bilan qo'rqitish, bolani qichqirib hushdan ketkazish kabilarni keltirish mumkin. Zulmkorlik ko'rinishga bola salomatligidan bexabar holda unga tajovuzkorli munosabatda bo'lish kabilarni ham ko'rish mumkin. Ruhiy zo'riqtirish faktorlar orasida o'qituvchining pedagogik uquvsizligi, qo'polligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqini zo'riqishsiz boshqarish, tuzatishning yo'qligi uchraydi. O'qituvchi o'quvchi qizni o'zini tuta olmaslikda ayblab urishadi, uning yonida turgan o'qituvchilar esa

qizning yonini olib uni maqtashadi. Sinf o'quvchilari oldida maktab zavuchi va o'qituvchi bolalarni boshqa sinfga "o'tkazish" haqida gapirishadi. Bu hol o'quvchilarning isyon ko'tarishiga olib keladi... Yosh o'qituvchi ayol qizchani yoqimtoy otasini tez – tez maktabga chaqira boshlaydi. Ular orasida sevgi mojarosi boshlandi. Oqibatda o'qituvchi ayol boshqa shaharga ko'chishga majbur bo'ladi, o'quvchi qizchani esa boshqa maktabga o'tkazishadi... O'qituvchi boshiga tushgan bu baxtsizlik uning o'quvchiga bo'lgan munosabatini keskin o'zgartirib yuboradi... Maktab ma'muriyati o'qituvchilarning qanday qilib ashula, rasm, jismoniy madaniyat darslarini matematika, chiroyli yozuv, rus tili bilan almashtirganlarini payqashmaydi...

Biz yuqorida umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari orasida yuz beruvchi ruhiy zo'riqishga doir vaziyatlarni ko'rib chiqdik. Pedagogika fani hozirgacha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi aybi bilan yuz beruvchi ruhiy zo'riqishi chuqurligini o'lchash metodlariga ega emas. Muammoning murakkabligi shundan iboratki, kichkintoylar maktabga muayyan hayotiy tajribaga ega bo'lgan holda qadam qo'yishadi, bu tajriba oiladayoq, maktabgacha ta'lim muassasasidayoq tarkib topgan bo'ladi. Agar uyda bolaga jismoniy ta'sir ko'rsatish odat bo'lgan bo'lsa, u maktabda o'qituvchi axloqidagi bunday odatlarga nisbatan unchalik qarama-qarshilikka uchramaydi. Biroq oilada qattiq jismoniy jazolashlarga duch kelmagan kichkintoy o'qituvchining jismoniy kuch ishlatishiga bardosh berolmaydi. Bolada kattalarning haqoratli munosabatlariga nisbatan qat'iy norozilik shakllanadi.

Endi talab kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida yuz beruvchi ruhiy jarohatlanish sabablari, xillari va og'irligi bilan tanishar ekan, har bir o'qituvchi o'z oldiga bolaga "zarar yetkazma" degan kasbiy kodeksga amal qilishi lozimligiga tushunib yetadi.

Xulosa

Referatni bajarish jarayonida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish hamda didaktik hamkorlik va unda sodir bo'ladigan ziddiyatlarni aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz natijasida quyidagi xulosalar ilgari surildi:

O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan emosional munosabatlarini 5 tipga ajratish mumkin:

- 1) emosional-ijobiy faollik,
- 2) emosional-ijobiy passivlik,
- 3) emosional-salbiy faollik,
- 4) emosional-salbiy passivlik ,
- 5) muvozanatsizlik

Bunday munosabatning har biri bolaga turlicha ta'sir ko'rsatadi va o'zaro munosabatlarning mazmunini, sifati tashkil kiladi. O'quvchilar shu munosabatlarga turlicha berilishlarida ularni o'qishga, mehnatga bo'lgan turli munosabatlari shakllanadi

Darsda o'qituvchi tomonidan baho qo'yilganda quyidagi sabablar o'quvchilarning asabiylashuvi, noroziligiga sabab bo'ladi:

- Baholashda ikki izlamachilik sodir bo'lsa: daftarda baho "3", jurnalda esa "4".
- Og'zaki va yozma ishlar adolatsizlarcha baholanadi.
- Ota – onalar iltimosi, tanish – bilishchilik sababli baholar ko'tarilib qo'yiladi.
- Yangi kelgan o'quvchilarga o'zining talabchanligini namoyish etish maqsadida ataylab past baho qo'yiladi.
- Javoblarga talablar ham bir xil emas. Ko'pincha bu o'qituvchining kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.
- Oldin qo'yilgan "5" baho keyingi baho qo'yilishiga ta'sir etadi.

- Uy vazifasini bajarishdagi tirishqoqlik hisobga olinmaydi.
- Hali o'rgatilmagan narsani chiza olmaganligi uchun "2" qo'yiladi.
- Yozuvning iflosligi uchun yaxshi yozilgan nazorat ishining bahosini tushirishadi. O'quvchi hayron: nega to'g'ri bajargan ishiga past baho qo'yishdi?
- Bir xil xatolarga yo'l qo'yilgan diktantlarga turlicha baho qo'yishadi. O'quvchilar o'qituvchining o'z "erkatoy"lari bor degan xulosaga kelishadi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, o'quvchilar bilimini baholashda bir qancha tushunmovchiliklar ham mavjud. Ulardan biri – bu ayniqsa, gumanitar fanlardan baholashda qat'iy bir xato mezonlarining yo'qligidir. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, kayfiyati va hokazolarni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotinig poydevori. – Toshkent, 1997.(Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi).
3. Karimov I.A. Ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasida
4. fikr va mulohazalari.
5. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi qonun» – Toshkent, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Toshkent,
7. 1997.
8. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999.
9. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. // Boshlang'ich ta'lim – Toshkent: Sharq, 1999.
10. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
11. I.Y. Tursunov, U.N. Nishonaliyev Pedagogika kursi Toshkent:
12. O'qituvchi. 1997 y.
13. Pedagogning tarbiyalanuvchi bilan o'zaro muloqoti. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” kitobida. L. Ruvinskiy tahriri ostida. - T., 1991, II bob, 22-75 bet.
14. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. T., 1989.
15. Masterstvo pedagogicheskogo vzaimodeystviya. - V kn: “Основы педагогического мастерства”. Pod. Red. N. Zyazyuna - M. Prosveyeniye, 1989.
16. Pedagogik izlanish - T., 1991, 205-270 bet.
17. Nozirova L. Muloqotdagi sustlik - “Boshlang'ich ta'lim”, - 1999, №5, 24-25 bet.
18. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: «Turon Iqbol» nashriyoti. 2006.
19. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: «Lider Press» nashriyoti. 2009.

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.ref.uz